

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–sentabrida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 41 992,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 7,0 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 112,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 8,1 % ga yetdi.




**2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM  
ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	<b>I. YAHM</b>	<b>35 037,6</b>	<b>41 992,3</b>	<b>107,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	34 497,2	41 258,4	107,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	540,4	733,9	107,2
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>34 497,2</b>	<b>41 258,4</b>	<b>107,0</b>
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4 812,9	6 320,6	104,9
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>25 570,8</b>	<b>30 030,7</b>	<b>107,3</b>

		Mlrd. so‘m		O‘sish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	sanoat	24 402,5	28 474,6	106,8
	qurilish	1 168,3	1 556,1	117,2
	<b>Xizmatlar</b>	4 113,5	4 907,1	107,6
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	912,0	1 085,2	105,5
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	559,6	702,9	115,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	2 641,9	3 119,0	106,6

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 41 128,6 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,1 % ga yuqoridir.




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 15,3 % ni, sanoat tarmog‘i 69,0 % ni, qurilish 3,8 % ni va xizmatlar sohasi 11,9 % ni tashkil qildi.




## 2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2020- yil	2021- yil
	<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	98,5	98,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1,5	1,7
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<b>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</b>	<b>14,0</b>	<b>15,3</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)</b>	<b>74,1</b>	<b>72,8</b>
	sanoat	70,7	69,0
	qurilish	3,4	3,8
	<b>Xizmatlar</b>	<b>11,9</b>	<b>11,9</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	2,6	2,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1,6	1,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	7,7	7,6




2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2020- yil





2021- yil



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 15,3 %), sanoatda – 106,8 % (69,0 %), qurilishda – 117,2 % (3,8 %), xizmatlar sohasida – 107,6 % ni (11,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 105,5 % (2,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 115,6 % (1,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,6 % dan (7,6 %) iborat bo'ldi.



**2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida  
YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,7 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 0,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 4,8 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 8,4 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda salbiy – 0,5 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 0,8 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 0,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 0,3 f.p.) ga ko'paydi.




### 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2021- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 112,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyator indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidada – 125,2 % va qurilishda – 113,7 % qayd etildi.



**2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



**2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMda kichik biznesning ulushi (YAQQga nisbatan %da)**



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 27,3 % ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-sentabrida – 25,7 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.